

Bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha ushbu Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistika uslubiyatida xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlari doirasida Milliy hisoblar tizimi – 2008 uslubiyatiga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu hujjatning maqsadi bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (keyingi o'rinlarda – BO'MVX) ishlab chiqarishi va undan foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblashning uslubiy asoslarini aniqlab berishdan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

moliyaviy vositachilik ishlab chiqarish faoliyati turi bo'lib, ushbu faoliyat davomida moliyaviy vositachilar xarajatlarni va ma'lum tavakkalchilikni o'z zimmasiga olgan holda qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni moliyaviy aktivlarga aylantiradi. Moliyaviy vositachilarga tijorat banklari, lizing kompaniyalari, investitsiya jamg'armalari, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa moliyaviy muassasalar kiradi;

depozitlar bank yoki boshqa depozit muassasasiga saqlash uchun topshirilgan, muddati kelganda va ma'lum shartlar asosida depozit shartnomasida belgilangan foiz stavkasi bo'yicha foizlari bilan qaytariladigan pul mablag'lari hisoblanadi;

kreditlar (qarzlar) – kreditorlar pul mablag'larini bevosita qarz oluvchilarga taqdim etganlarida yuzaga keladigan moliyaviy vositalar bo'lib, qoidaga ko'ra, ular boshqa shaxslarga berilmaydigan hujjatlar bilan tasdiqlanadi;

foiz stavkasi bu moliyaviy-kredit kelishuvlarining daromadlilik me'yori bo'lib, u belgilangan vaqt oralig'i (oy, yil) uchun to'lab beriladigan foizlar yig'indisini qarz miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi;

yordamchi moliyaviy xizmatlar – hisob-kitob va kassa operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, valyuta bozori va qimmatbaho metallar bozorida operatsiyalar, depozitoriy, brokerlik, maslahat, axborot va boshqa turdagi xizmatlar.

2-bob. Milliy hisoblar tizimida moliyaviy vositachilik tushunchasi

2. Moliyaviy xizmatlar moliyaviy vositachilik xizmatlarini hamda yordamchi moliyaviy xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Mijozlarga yordamchi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun banklar va boshqa moliyaviy vositachilar komission to‘lovlar ko‘rinishida haq oladi.

Yordamchi moliyaviy xizmatlar ishlab chiqarishi ular uchun to‘lanadigan haq miqdorida aniqlanadi.

3. Moliyaviy vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi moliyaviy muassasalar xizmatlari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlarni olmaydi, ushbu xizmatlar uchun to‘lovlar yo qarz oluvchilar to‘laydigan foizlarga yashirin tarzda kiritiladi yoki banklarga nisbatan past foiz stavkalarida resurslarini qarz sifatida joylashtiradigan institutsional birliklardan yashirin tarzda undiriladi. Shunday qilib, banklar moliyaviy vositachilik xizmatlari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov olmaydi, lekin qarz oluvchilar hamda kreditorlar uchun turli foiz stavkalarini belgilagan holda o‘z xarajatlarini moliyalashtiradi va ushbu faoliyatning daromadini ta‘minlaydi. Shu munosabat bilan milliy hisoblar tizimida BO‘MVX ishlab chiqarishining qiymati bilvosita hisoblab chiqiladi.

4. Banklar va boshqa moliyaviy muassasalarning vositachilik faoliyati jamg‘armalari bo‘lgan va ularni ushbu resurslardan investitsiyalarni moliyalashtirishda foydalanmoqchi bo‘lgan institutsional birliklar, asosan nomoliyaviy korxonalarga to‘lov evaziga vaqtinchalik foydalanishga bera oladigan turli institutsional birliklarning (asosan, uy xo‘jaliklari va korxonalar) bo‘sh turgan moliyaviy resurslarini jalb qilish va to‘plashdan iborat.

3-bob. MHT – 2008 ga muvofiq bilvosita o‘lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblashning asosiy qoidalari

5. BO‘MVX ishlab chiqarishi sifatida faqat kreditlar va depozitlarga nisbatan hamda faqat bu kreditlar moliyaviy muassasalar tomonidan taqdim etilgan hollarda, shuningdek, depozitlar moliyaviy muassasalarda joylashtirilgan hollarda qaraladi.

Shu bilan birga, BO‘MVX hisob-kitoblariga qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan mulkdan olingan daromadlar kiritilmaydi, chunki bunday operatsiyalar vositachilik operatsiyalari hisoblanmaydi.

6. BO‘MVX ishlab chiqarishini hisoblashda qarzlar moliyaviy vositachilik (ya‘ni depozitlar ko‘rinishida jalb qilingan) mablag‘lari hisobidan yoki moliyaviy muassasalarning o‘z mablag‘lari hisobidan taqdim etilishidan qat‘iy nazar hisobga olinadi.

7. Markaziy bank moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatadi, biroq uning asosiy funksiyalari umumiy makroiqtisodiy

tartibga solish bilan bog'liqdir. Shu sababli, Markaziy bank moliyaviy vositachilar qatoriga va mos ravishda BO'MVX hisob-kitobiga ham kiritilmaydi hamda uning ishlab chiqarishi joriy xarajatlar miqdorida nobozor ishlab chiqarish sifatida baholanadi.

8. BO'MVX ishlab chiqarishi iste'molning turli bandlari (oraliq iste'mol, yakuniy iste'mol va eksport) bo'yicha taqsimlash imkonini beradigan, haqiqatda olinadigan va to'lanadigan foizlar va foizning bazis stavkasi o'rtasidagi farq, ya'ni qarzдорlikning sof qiymati sifatida ifodalanadi, lekin tavakkalchilik uchun mukofotlar va vositachilik xizmatlariga to'lovlarni o'z ichiga olmaydi.

9. MHT – 2008 bazis stavkasi sifatida banklararo kreditlash bo'yicha qarz foizini yoki markaziy bankning kreditlash bo'yicha stavkasini olishni tavsiya etadi. Lekin amaliyotda BO'MVXni hisoblash uchun ushbu foiz stavkalaridan foydalanish BO'MVX ishlab chiqarishini manfiy qiymatga ega bo'lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bu holat uzoq muddatli qarzlarining ulushi yuqori bo'lganda hamda foizning joriy stavkasi tez ko'tarilishi sababli, qarzlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasidan yuqori bo'lganda yuz berishi mumkin. Bunday hollarda, BO'MVX manfiy qiymatga ega bo'lmasligi uchun foizning bazis stavkasi sifatida qarzlar va depozitlar bo'yicha o'rtacha stavkadan foydalanish tavsiya etiladi. Uni hisoblashni umumiy formulasi quyida keltirilgan:

$$\overline{rr} = \frac{I_l + I_d}{yL + yD}$$

bu yerda, $\overline{rr}$ – qarzlar va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi;

I_l – qarzlar bo'yicha foiz;

I_d – depozitlar bo'yicha foiz;

yL – hisobot davriga qarzlarining o'rtacha qoldig'i;

yD – hisobot davriga depozitlarning o'rtacha qoldig'i.

Qarzlar va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi moliyaviy vositachilarning turlari va har bir sektor (nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy vositachilardan tashqari, moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi organlari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNT), uy xo'jaliklari) o'rtasidagi operatsiyalar uchun alohida hisoblanishi kerak.

10. BO'MVX ishlab chiqarishi qarzlar va depozitlar bo'yicha operatsiyalar uchun alohida hisoblanadi. Qarzlar bilan operatsiyalar uchun BO'MVX hisobot davriga ularning o'rtacha qoldig'ini qarzlar bo'yicha foiz stavkasi va foizning bazis stavkasi o'rtasidagi farqqa ko'paytirish orqali hisoblanadi. Depozitlar bilan operatsiyalar uchun BO'MVX hisobot davriga depozitlar o'rtacha qoldig'ini foizning bazis stavkasi va depozitlar bo'yicha foiz stavkasi o'rtasidagi farqqa ko'paytirish orqali hisoblanadi. BO'MVXning umumiy hajmi qarzlar bo'yicha BO'MVX va depozitlar bo'yicha BO'MVX yig'indisi orqali hosil bo'ladi, bu quyidagi formulada o'z aksini topadi:

$$BO'MVX = [(rL - rr) * yL] + [(rr - rD) * yD]$$

bu yerda, yL – hisobot davriga qarzlarining o'rtacha qoldig'i;

yD – hisobot davriga depozitlarning o'rtacha qoldig'i;

rL – qarzlar bo'yicha foiz stavkasi;

rD – depozitlar bo'yicha foiz stavkasi;

rr – foizning bazis stavkasi;

$(rL - rr) * yL$ – qarzlar bo'yicha BO'MVX;

$(rr - rD) * yD$ – depozitlar bo'yicha BO'MVX.

11. BO'MVX hisobi har bir institutsional sektor bilan moliyaviy vositachilarning har bir guruhi o'rtasidagi qarzlar va depozitlar bo'yicha operatsiyalar uchun amalga oshiriladi.

12. BO'MVXni shakllantirishda qarzlar toifasiga moliyaviy lizing va qimmatli qog'ozlarni kelgusida qayta sotib olish sharti bilan sotish to'g'risidagi kelishuvlar (RYEPO operatsiyalari) ham kiritiladi. Qimmatli qog'ozlarning egasi o'zgarmasligi hamda xaridorda ularni sotish huquqi yo'qligi sababli, bunday holatda egalik huquqini o'tkazib berish o'rni mavjud emas, deb hisoblanadi va bunday operatsiya qimmatli qog'oz bilan kafolatlangan bo'lib, kreditorning sotilgan qimmatli qog'oz qiymati miqdorida qarz berishi sifatida qaraladi. Qayta sotib olish qiymati va sotish qiymati o'rtasidagi farq aynan foiz kabi qaraladigan mulkdan olinadigan daromad toifasiga kiritiladi. Keng ma'noda pul massasini milliy tavsifiga kiritiladigan qisqa muddatli RYEPO kelishuvlari qarzlar sifatida qaralmaydi va ular depozitlar sifatida hisobga olinadi.

13. BO'MVXni hisoblash uchun faqat moliyaviy vositachilar tomonidan boshqa institutsional birliklarga taqdim etilgan qisqa muddatli qarzlar kabi uzoq muddatli qarzlar ham hisobga olinishi kerak.

14. Hisobot yili uchun BO'MVX hisobi o'rtacha yillik qarzlar va depozitlar qoldiqlari sifatida choraklar oxiriga qoldiqlarning o'rtacha xronologiyasi orqali hisoblanadi.

15. Qarzlar bo'yicha foizlar moliyaviy vositachilar tomonidan boshqa institutsional birliklardan qarzlarining barcha turlari bo'yicha moliyaviy lizing va RYEPO kelishuvlarini qo'shgan holda, hisobot yilida olishi kerak bo'lgan foizlarni o'z ichiga oladi.

Depozitlar bo'yicha foizlar moliyaviy vositachilar tomonidan boshqa institutsional birliklarga depozitlarning barcha turlari bo'yicha, depozit sertifikatlar va qisqa muddatli RYEPO kelishuvlarini qo'shgan holda, hisobot yilida to'lab berishi kerak bo'lgan foizlarni o'z ichiga oladi.

16. Moliyaviy vositachilarning mijozlar guruhlari bo'yicha taqdim etilgan qarzlar va depozitlarning qoldiqlari va ular bo'yicha foizlar to'g'risidagi ma'lumotlari BO'MVX foydalanuvchilari bo'lgan tegishli institutsional sektorlar bo'yicha institutsional birliklarning sektorlar bo'yicha tasniflash tamoyillari asosida taqsimlanadi.

17. BO'MVX ishlab chiqarishini foydalanuvchi institutsional sektorlar bo'yicha hisoblash uni iste'mol elementlari bo'yicha taqsimlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Shunday qilib, uy xo'jaliklari – iste'molchilar kichik sektori uchun BO'MVX uy xo'jaliklari sektorining yakuniy iste'moliga kiradi. Boshqa sektorlar uchun BO'MVX ushbu sektorlarning oraliq iste'moliga kiradi. BO'MVX eksporti xizmatlar eksporti

tarkibida hisobga olinadi. BO‘MVX importi tegishli foydalanuvchi sektorlarning oraliq va yakuniy iste‘moliga qo‘shiladi.

18. Uslubiy nizomning ilovalaridagi jadvallarda BO‘MVX ishlab chiqarishini institutsional sektorlarning undan foydalanishi hisob-kitobi asosida hisoblash sxemasi keltirilgan. U O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari va boshqa moliyaviy vositachilarning qarzlar va depozitlar qoldiqlari hamda ular bo‘yicha foizlar to‘g‘risidagi, shuningdek, mijozlar guruhlari kesimidagi boshlang‘ich ma‘lumotlardan foydalanishni taqozo etadi va ma‘lumotlarni institutsional sektorlarga guruhlash imkonini beradi.

Moliyaviy korporatsiyalar sektoriga ushbu hisob-kitoblari uchun moliyaviy vositachilar va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari moliyaviy muassasalarning qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi.

Uy xo‘jaliklari sektori quyidagi kichik sektorlarga ajratiladi:

- uy xo‘jaliklari – ishlab chiqaruvchilar (birlashmagan korxonalar egalari) kichik sektori;

- uy xo‘jaliklari – uy-joy mulkdorlari kichik sektori;

- uy xo‘jaliklari – iste‘molchilar kichik sektori.

Uy xo‘jaliklari – ishlab chiqaruvchilar kichik sektoriga yakka tartibdagi tadbirkorlarning qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi. Uy xo‘jaliklari – uy-joy mulkdorlari kichik sektoriga ipoteka kreditlari kiritiladi. Uy xo‘jaliklari – iste‘molchilar kichik sektoriga jismoniy shaxslarning qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi.

Nomoliyaviy korporatsiyalar sektoriga nomoliyaviy davlat korxonalari va tashkilotlari, xususiy korxonalar va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi.

Davlat boshqaruv organlari sektoriga hukumat, budjetdan tashqari fondlar va budjet tashkilotlarining qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi.

UXXKNT sektoriga nodavlat notijorat tashkilotlar (jamoat va diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, kasbiy va ilmiy jamiyatlar, iste‘mol jamiyatlari, sport va madaniy klublar va boshqalar)ning qarzlar va depozitlar bo‘yicha operatsiyalari kiritiladi.

19. 1-ilovada keltirilgan jadvalda har bir institutsional sektor uchun foizning bazis stavkasini hisoblash sxemasi aks ettirilgan.

20. 2-ilovada keltirilgan jadvalda foydalanuvchi – institutsional sektorlar ma‘lumotlari asosida BO‘MVX ishlab chiqarishi va undan foydalanishni hisoblash sxemasi aks ettirilgan.

21. 1 va 2-ilovalarda keltirilgan jadvallar moliyaviy vositachilarning har bir turi uchun tuziladi. Barcha moliyaviy vositachilar uchun ma‘lumotlarni umumlashtirish 3-ilovada keltirilgan jadvalda amalga oshiriladi.

22. Foydalanuvchilar sektorlarining oraliq iste‘moliga kiritiladigan BO‘MVX ishlab chiqarishi iqtisodiy faoliyat turlariga quyidagicha taqsimlanadi:

nomoliyaviy korporatsiyalar sektori uchun BO‘MVX ishlab chiqarishi 1 korxona “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida hisobot” va 1 KB “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” shakllari

ma'lumotlari asosida hisoblangan faoliyat turlari bo'yicha foiz xarajatlari strukturasi mutanosib ravishda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi);

moliyaviy vositachilar va Markaziy bankdan tashqari, moliyaviy korporatsiyalar sektori uchun BO'MVX ishlab chiqarishi K "Moliyaviy va sug'urta faoliyati" seksiyasining oraliq iste'moliga kiritiladi;

boshqa sektorlarning oraliq iste'moliga kiritiladigan BO'MVX ishlab chiqarishi ushbu sektorlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlari asosida yalpi qo'shilgan qiymat strukturasi muvofiq faoliyat turlariga taqsimlanadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

23. MHT – 2008 ning BO'MVX ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha yangi qoidalarini qo'llanilishi YAIM darajasida BO'MVX ishlab chiqarishini uy xo'jaliklari sektorining yakuniy iste'moli va eksportga yo'naltiriladigan qismi hisobiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvi organlari va UXXKNT sektorlarining oraliq iste'moliga kiritiladigan BO'MVX ishlab chiqarishi ushbu sektorlarning yalpi qo'shilgan qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki ularning ishlab chiqarishi joriy xarajatlari bo'yicha aniqlanadi va oraliq iste'molga kiritilgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

24. Rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo'llash maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

25. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
2. European system of accounts – 2010, Eurostat, 2013 г.
3. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора финансовых учреждений, Статкомитет СНГ//Москва, 2002 г.
4. Методологические рекомендации по исчислению показателей выпуска и использования услуг финансового посредничества, измеряемых косвенным образом, в соответствии с СНС-2008. Статкомитет СНГ//Москва, 2012 г.

Bilvosita o'lganadigan moliyaviy
vositachilik xizmatlari ishlab
chiqarishini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizomga
1-ilova

Foizning bazis stavkasini hisoblash (1-jadval)

	sotr raqa- mi	Nomo- liyaviy korpor- ratsiya- lar	Moliya- viy korpor- ratsiya- lar ¹⁾	Davlat boshqa- ruvi	UXX- KNT	Uy xo'ja- liklari	shu jumladan:			Jami
							yuridik ma- qomga ega bo'lmagan tadbirkorlar	uy-joy egalari	Iste'- mol- chilar	
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Qarzlal										
Hisobot davriga qarzlarning o'rtacha qoldig'i	1									
Hisobot davriga qarzlal bo'yicha foizlar	2									
Depozitlar										
Hisobot davriga depozitlarning o'rtacha qoldig'i	3									
Depozitlar bo'yicha foizlar	4									
Qarzlal+ Depozitlar										
Hisobot davriga o'rtacha qoldiq (1-sotr+3-sotr)	5									
Hisobot davriga qarzlal va depozitlar bo'yicha foizlar (2-sotr+ 4-sotr)	6									
Foizning bazis stavkasi - % (6-sotr / 5-sotr) x 100	7									

¹⁾ Moliyaviy vositachilar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari.

Bilvosita o'lganadigan moliyaviy
vositachilik xizmatlari ishlab
chiqarishini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizomga
2-ilova

**Institutsional sektorlar bo'yicha ma'lumotlar asosida BO'MVX ishlab chiqarishi
va undan foydalanishni hisoblash (2-jadval)**

	sitr raqa- mi	Nomo- liyaviy korpor- ratsiya- lar	Moliya- viy korpor- ratsiya- lar ¹⁾	Dav- lat bosh- qaru- vi	UXX KNT	Uy xo'ja- liklari	shu jumladan:			Jami
							yuridik maqomga ega bo'lgan tadbirkorlar	uy-joy egalari	iste'- molchi- lar	
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Qarzlilar										
Hisobot davriga qarzlarning o'rtacha qoldig'i (1-jadval 1-sitr)	1									
Qarzlilar bo'yicha foizlar (1-jadval 2-sitr)	2									
Foiz stavkasi - % (2-sitr / 1-sitr) x 100	3									
Depozitlar										
Hisobot davriga depozitlarning o'rtacha qoldig'i (1-jadval 3-sitr)	4									
Depozitlar bo'yicha foizlar (1-jadval 4-sitr)	5									
Foiz stavkasi - % (5-sitr / 4-sitr) x 100	6									
Foizning bazis stavkasi - % (1-jadval 7-ustun)	7									
Qarzlilar bo'yicha foiz stavkasi va bazis stavka o'rtasidagi farq - % (3-sitr - 7-sitr)	8									
Bazis stavkasi va depozitlar bo'yicha foiz stavkasi o'rtasidagi farq - % (7-sitr - 6-sitr)	9									
BO'MVX (11-sitr+12-sitr)	10									
shu jumladan:										
- qarzlilar bo'yicha (1-sitr x 8-sitr) / 100	11									
- depozitlar bo'yicha (4-sitr x 9-sitr) / 100	12									
BO'MVXdan foydalanish:										
- oraliq iste'molga (10-sitr)	13					6-ustun+ 7 ustun			x	
- yakuniy iste'molga (10-sitr)	14	x	x	x	x	8-ustun	x	x		

¹⁾ Moliyaviy vositachilar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan tashqari.

Bilvosita o'lganadigan moliyaviy
vositachilik xizmatlari ishlab
chiqarishini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizomga
3-ilova

**Barcha moliyaviy vositachilar kesimida BO'MVX
ishlab chiqarishini umumiy hajmini va undan foydalanishni hisoblash (3-jadval)**

Moliyaviy vositachilar turlari	sitr raqami	BO'MVX ishlab chiqarishi (10-sitr, 9-ustun)	undan foydalanilgan:						
			oraliq iste'mol (13-sitr, 9-ustun)	shu jumladan sektorlar bo'yicha					uy xo'jaliklari- iste'molchilari- ning yakuniy iste'moli (14-sitr, 9-ustun)
				nomoliyaviy korporatsiyalar (13-sitr, 1-ustun)	moliyaviy korporatsiyalar (13-sitr, 2-ustun)	davlat boshqaruvi (13-sitr, 3- ustun)	UXXKNT (13-sitr, 4-ustun)	uy xo'jaliklari- ishlab chiqaruvchilari (13-sitr, 5-ustun)	
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8
Tijorat banklari	1								
Mikrokredit tashkilotlari	2								
Lombardlar	3								
Jami (1dan 3 gacha satrlar yig'indisi)	4								